



**INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN (NUTQIY NUQSONI BOR BO'LGAN)
BOLALARNING MATEMATIK TAFAKKUR SOHASINI AMALIY
O`RGANISH.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11435559>

Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li

FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Inklyuziv ta'lim olayotgan nutqiy nuqsoni bor bo'lgan bolalarnig tafakkur jarayonining xususiyatlari yoritilgan bo'lib, ularni tafakkur va nutqning bog'liqligi, inklyuziv ta'lim jarayonida nutqning samarali rivojlanishi va bu ish yuzasidan qilingan tadqiqot ishlari kiritilgan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar

Inklyuziv ta'lim, nutqiy nuqsoni bor bo'lgan bolalar, ko'rgazmali-amaliy, inklyuziv ta'lim olayotgan bolalarning tafakkuri, tafakkur sensor alaliya.

АННОТАЦИЯ

В статье описаны особенности мыслительного процесса детей с нарушениями речи, получающих инклюзивное образование, связь мышления и речи, эффективное развитие речи в процессе инклюзивного образования, а также исследования, проводимые в этой связи. В статье также содержатся научное предложение и практические рекомендации, сформулированные автором по данному вопросу.

Ключевые слова

инклюзивное образование, дети с нарушениями речи, наглядно-практическое, мышление детей, получающих инклюзивное образование, сенсорная алалия мышления.

ABSTRACT

This article describes the features of the thinking process of speech-impaired children receiving inclusive education, the connection between thinking and speech, the effective development of speech in the process of inclusive education, and the research conducted in this regard. The article also contains the scientific proposal and practical recommendations formulated by the author on this issue.

Key words

Inclusive education, speech-impaired children, visual-practical, thinking of children receiving inclusive education, thinking sensory alalia.



XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda ham keng targ'ibot qilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida **“Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.”**² deb belgilab qo'yilganligi ham ta'lim sohasiga bo'lgan ulkan e'tibordir.

Bolalar shaxsini rivojlantirishda ta'lim tarbiyaning ahamiyatiga urg'u berib, o'zining qimmatli fikrlarini bebaxo asarlarida bayon etgan Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori va boshqalar bolaning kamolatga yetishishida o'yin faoliyatining mohiyatini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib borganlar. Millat bolasini qutqarmoq ishtiyoqi bilan elib yashagan bobomiz Abdurauf Fitrat bunday degan edi:

“Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, ana shu birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va ofatlari bolaligidanoq shakllanadi”³

Maktabgacha va boshlabg'ich ta'lim yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati Vigotskiy, S. Rubinshteyn, A.N. Leontev, Ch. A.Arkin, M. Vohidova, V.V. Davidova, E.G'oziyeva, S.I Yankovskiy va boshqalarning asarlarida ham bola nutqini, shaxsini rivojlantirishda bo'g'inlarning ahamiyati haqida e'tiboriga moyil fikrlar bildirilgan.

Tafakkur sensor alaliya va afaziyaning barcha turlarida miyaning organik buzilishlari natijasida tafakkur qo'pol buzilgan bo'ladi. Boshqa nutq nuqsonlarida esa (rinolaliya, dizartriya, duduqlanish) tafakkur buzilishi logopsixologiyada chuqur o'rganilmagan va tahminimizga ko'ra, bu nuqsonlarda tafakkurning qo'pol buzilishlari kuzatilmaydi, lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Muammoli bolalar tafakkur rivojlanishi orqada qolish bilan tasniflanadi. A.R. Luriya, L.S.Svetkova, I.T.Vlasenko o'z tadqiqotlarida so'z-mantiq tafakkur buzilishi mexanizmlari muammolarini yoritib berdilar.

So'z-mantiq tafakkur nutq vositasida amalga oshiriladi. A.N. Leontev ta'kidlashicha, so'z ma'nolarida predmet dunyosi, xossalari, aloqalari, munosabatlari o'zining moddiy ifodasini topgan. L.S.Vigotskiy bu bog'liqlikni tafakkur va nutq birligi deb atagan. Tushuncha tafakkur jarayonida vujudga keladi. Tafakkur qanchalik to'liq rivjqlangan bo'lsa, so'z ma'nosi shunchalik to'liq bo'ladi,

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 01.05.2023


³ A.Fitrat, Oila, Toshkent: “Manaviyat” 1998-y 34-bet

ya'ni tafakkur jarayonlari, so'z ma'nosi ortida turib, shaxsiy fikrlash darajasida kechadigan analiz va sintez bilan bog'langan.

Nutqiy nuqsoni bor bo'lgan bolalar 37% ga yaqin bolalar past darajani ko'rsatdilar. Nutq maktablarining 7% bolalarigina me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlariga o'xshab, bilish faoliyatlarining xususiyatlari bilan ko'rsatkichlarga yaqinlashadilar.

Nutqiy nuqsoni bor bo'lgan ko'pgina bolalar uchun shuningdek fikrlash rigidligi xos, L.S. Vigotskiy ta'kidlaganki, tushunchalarning ortiq darajada bo'linishi hamda umumiylik me'yori buziladi, so'z ma'nosidagi mavhumlik va aniqligi birinchi yo'qolishi sodir bo'ladi. So'z ma'nosi ortida turgan beixtiyor tafakkur jarayonlarining bilish va xususan tafakkur faoliyatida ixtiyoriy ravishda kechadigan tahlil qilish va sintez bilan bog'likligi bejiz emas. Tafakkur qanchalik to'liq rivojlangan bo'lsa, shunchalik so'z ma'nosi to'liqdir, ya'ni tafakkur jarayonlari, so'z ma'nosi ortida turib, shaxsiy fikrlash darajasida kechadigan analiz va sintez bilan bog'langan.


Biz inklyuziv ta'lim olayotgan Marg'ilon shahar 7-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida nutqida nuqsoni bor bo'lgan 13 nafar bolalardan matematik tafakkuri "Matematik tafakkurni aniqlash" usuli yordamida amaliy o'rgandik.



1-jadvalga asosan, o'rganayotgan respondentlarimizni tibbiy-pedagogik-psixologik tahlili bo'yicha o'rgandik. Unga ko'ra nutqiy nuqsoni bor bo'lgan o'g'il bolalar 54 %, qiz bolalar esa 46 % ni tashkil qildi. Demak, nutqiy nuqson qiz bolalardan ko'ra, o'g'il bolalarda ko'proq kuzatilyapti.

Bunday bolalarda o'tkazgan "Matematik tafakkurni aniqlash" metodikamizdan 2-jadvaldagi natijalar chiqdi.

2-jadval



Ya'ni 2-jadvalga binoan, o'g'il bolalarda yuqori natija 2 nafar, o'rta natija 2 nafar, past natija 3 nafar chiqdi.

Qiz bolalarda 2 nafar yuqori natija, 3 nafar o'rta natija, 11 nafar past natija qayd etdi.

Quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tamiz: Inklyuziv ta'lim olayotgan (nutqiy nuqsoni bor bo'lgan) bolalarni tafakkur jarayoni qanday ekanligi, tafakkur va nutq bog'liqligi, nutqiy nuqson bo'lgan bolalarda tafakkur qay yo'sinda ekanligi bayon qilingan. Unga ko'ra, qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan kamroq nutqiy nuqson kamchiligiga chalinadi hamda matematik tafakkur sohasi ham rivojlanishi yuqori bo'lar ekan. Inklyuziv ta'lim olayotgan bolalarni tafakkur sohasini shakllantirishda ranglar orqali foydalanish ijobiy natija beradi hamda pedagog defektolog va psixologlar tomonidan hayvonlar, o'simliklar olami va mehnat faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash, nutq va tafakkurini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.



2. O'zbekiston Respublik Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3931-son qarori.
3. A.Fitrat, Oila, Toshkent: "Manaviyat" 1998-y 34-bet
4. S.Mo'minov Sh.Axmedova G.Alimova. "Inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish" o'quv dastur .Toshkent. 2022 y.
5. Алехина С.В Инклюзивное образование для детей с ограниченными возможностями здоровья 2009 Москва
6. Выготский Л. С. Возрастной психологии. М., 2007.– 315 с.
7. Выготский Л. С. Вопросы детской психологии. – СПб., 2006.– 245 с.
8. Loreman, T."Inklyuziv ta'lim: sinfda xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash". London 2011 yil
9. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li //Исследование процессов мышления детей с нарушениями речи, обучающихся в условиях инклюзивного образования// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11 | Issue-1 | 2023. 217-225 pages.
10. Topvoldievna Mirzajonova Eleonora¹, Abdukadirova, Yulbarsova Laura //Actuality of psychological support in work with children from the risk group// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Volume 12. Issue 6. 2022. 51-56 pages.